

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

2017/2018 o'quv yili boshiga jami 1556 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan 1163,2 ming nafar o'quvchilarga, 90,8 ming nafar pedagog xodimlar ta'lim bermoqda. Joriy yilda o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalariga 192,1 ming nafar o'quvchi qabul qilingan bo'lsa, bitiruvchilar soni 489,7 ming nafarni tashkil etdi.




Akademik litseylarning 117 tasi shahar joylarida joylashgan bo'lib, ularda 82,7 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda. 6 ta akademik litsey qishloq joylarida joylashgan bo'lib, ularda 3,1 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.



Kasb-hunar kollejlarning 928 tasi shahar joylarida joylashgan bo'lib, ularda 782,9 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda. 505 ta kasb-hunar kolleji qishloq joylarida joylashgan bo'lib, ularda 294,5 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.


1-rasm. 2017/2018 o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

2017/2018 o'quv yili boshida 1163.2 ming nafar o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari o'quvchilarining 92,6 foizi (1077,4 ming nafar) kasb-hunar kollejlariga, 7,4 foizi (85,8 ming nafar) akademik litseylarga to'g'ri kelmoqda.



2-rasm Hududlar kesimida o'quvchilar soni

2017/2018 o'quv yili boshida o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarining 1 nafar o'qituvchisiga 13 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda. Ushbu ko'rsatkich akademik litseylarda 11 nafar, kasb-hunar kollejlarida 13 nafarni tashkil qildi.



3-rasm Hududlar kesimida bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni